



O'ZBEKISTON- POKISTON: DO'STLIK VA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLANISHI.

Rashidova Aziza Aminboyevna

e-mail: raziza7757.14@gmail.com

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti, doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15104486>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Mart 2025 yil

Ma'qullandi: 25-Mart 2025 yil

Nashr qilindi: 29-Mart 2025 yil

KEYWORDS

*tashqi syosat, ishonchli sherik,
diplomatik*

munosabatlar, tarixiy

ildizi, diniy qarash, savdo

iqtisodiy, madaniy- gumanitar.

ABSTRACT

Ushbu maqola O'zbekistonning faol tashqi syosatini olib borishi, Qisqa vaqt ichida jahon hamjamiyatiga teng huquqli va ishonchli sherik sifatida kirishi, ayniqsa Osiyo davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishi, Pokiston O'zbekistonning muhim sherigi bo'lib tarixiy ildizi va diniy qarashlari yakdilligi, Pokiston Respublikasi bilan savdo iqtisodiy, madaniy -gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yoritishga bag'ishlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach faol tashqi aloqalarni olib bordi. Mustaqilligining ilk yillaridayoq Osiyoning yetakchi davlatlari tomonidan tan olindi va ular bilan savdo iqtisodiy, investitsiya, fan va texnologiya, madaniy aloqalar, davlat o'rtasida turizm sohalarida o'zaro munosabatlarini mustahkamladi.

Ayniqsa Pokiston respublikasi O'zbekistonni 1991 yil 20- dekabrda birinchilardan bo'lib tan oldi va 1992 yil 10 -mayda diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga chiqishi sifatida aytish mumkinki, Pokiston islom respublikasi davlat rahbari Namoz Sharif rasmiy tashrifi bilan 1992 yil iyun oyida O'zbekistonda bo'ldi. Bu tashrif davomida davlatlar o'rtasida savdo iqtisodiy, transport va madaniy hamkorlik yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning birinchi prezidenti I. Karimov 1992 yil avgustda Pokistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi. 1992 yil "O'zbekiston-Pokiston" jamiyati tuzildi.

"O'zbekiston-Pokiston" jamiyati, xalqaro madaniy -ma'rifiy aloqalar milliy assotsiatsiyasi tomonidan 1994 yil 9- aprelda o'zbek ayollar delegatsiyasi Loxur shahriga tashrif buyurishdi. "Pokiston- O'zbekiston" jamiyati tomonidan loxurda iliq va do'stona kutish olishdi. Uchrashuv davomida ayollar delegatsiyasi Muhammad Iqbol bosh masjidida bo'lishdi. Masjid imom xatibi mavlono Abdul Qodir Ozod Qur'on karim kitobini bir nusxasini berdi.

Har bir porasi bir kitob shaklda zardo'ziy usulda tikilgan Qur'on karimning yagona nusxasi Muhammad Payg'ambarning kavushlari, sallari, to'nalari, hassalari, Bibi Fotima onamiz onamiz ro'mallari joynamozlari, hazrat Ali sallari, tumorlari, Ka'baga yopilgan mato parchalarini hayojonlanmasdan ko'rib bo'lmasdi.

Safar davomida "Girl Guides" Pokiston qizlar tashkiloti bilan tashishdi. Bu tashkilot 127 ming ayol- qizlarni birlashtirib ularga bilim, kasb-hunar o'rgatadi va ularning muammolarini

yechedi . Delegatsiya Salimiy xonim boshchiligidagi Milliy san'at kollejida bo'ldi .Kollejda mamlakatdagi kam ta'minlangan yigit – qizlarga ta'lim tarbiya beradi . Bundan ko'rish mumkinki Pokiston xalqi uchun qayg'uradi va yoshlariga keng imkoniyatlar ochib berganini ko'rishimiz mumkin.Safar Pokiston The Pokiston time va Jang gazetalariga yoritib borildi .O'zbekistonda Xalq so'zi va Narodniy slova gazetalarda batafsil keng yoritib berildi.

Pokiston ayollar delegatsiyasi javob tarzda 1995 yil 23-30 sentyabr kunlari O'zbekistonga tashrif buyurdi. "O'zbekiston-Pokiston" jamiyati, xalqaro madaniy -ma'rifiy aloqalar milliy assotsiatsiyasi tomonidan iliq kutib olidi va qadimiy navqiron Buxoro va Samarqand shaharlarida bo'lishdi .

O'zbekiston va Pokiston o'rtasida turli sohalardagi hamkorlik va do'stlik o'zaro gumanitar yorgamlarni amalga oshirilishi tahsinga sazovor. 1995 yil Pokistonda yuz bergan tabiiy ofatdan jabrlangan pokiston xalqiga O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 15 tonna gumanitar yodam berilishini Pokiston elchisi Shafqat Ali Shayx tomonidan yuqori baholandi va xalqi va o'zi nomidan chuqur minnatdorchilik bildirdi.

Bugungi kunda prezidentning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan , o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" mamlakatimiz taraqqiyotining bosh yo'nalishi sifatida belgilandi. Ushbu tashabbus va islohatlar o'laroq tashqi iqtisodiy aloqalar O'zbekiston va Pokiston respublikalari o'rtasida hamkorligi kengaymoqda.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi savdo hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. 2022-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 500 million AQSh dollaridan oshdi . Eng muhim sohalarda sifatida to'qimachilik, farmatsevtika va transport-logistika tizimi ajralib turadi.

Shuningdek, O'zbekiston va Pokiston bank tizimlari o'rtasida hamkorlik mustahkamlanib, ikki davlat o'rtasidagi tranzaksiyalarni osonlashtirishga qaratilgan yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Pokistonga o'zining eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologik mahsulotlar bilan kirishga intilmoqda.

Pokistonning Karachi va Gvadar portlari O'zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. 2021-yilda Toshkent-Islamobod temir yo'l loyihasi kelishib olindi, bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining Janubiy Osiyo bozorlariga integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi⁵. Ushbu loyiha O'zbekiston uchun dengiz portlariga chiqish imkoniyatini yaratib, xalqaro savdo va yuk tashish tizimini optimallashtirishga imkon beradi.

Xulosa

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar iqtisodiy, transport, xavfsizlik va madaniy sohalardagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon nafaqat ushbu ikki davlat manfaatlariga, balki butun mintaqaviy integratsiyaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda savdo hajmini oshirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xavfsizlik bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish O'zbekiston-Pokiston aloqalarining yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.PF-4947

2. O'zbekiston tarixi 7- jild 351- bet
3. Arxiv xujjatlari font M-2 1-ro'yxat 113-yig'majild 2-bet
4. Arxiv xujjatlari font M -2 1-ro'yxat 113-yig'majild 20-bet
5. 5.The Pokiston time gazetasi 1994 yil 9 aprel soni
6. 6.Arxiv xujjatlari font M -2 1-ro'yxat 113-yig'majild 21-bet
7. 7.Arxiv xujjatlari font M -2 1-ro'yxat 148 -yig'majild 6-bet
8. 8.Arxiv xujjatlari font M -2 1-ro'yxat 148 -yig'majild
9. 9.Ahmed, S. (2023). Uzbekistan-Pakistan Trade Relations: Growth and Challenges. Islamabad Economic Review, 12(2), 45-60.

